

**BADIIY ASARLARDA QO'LLANGAN FRAZEOLOGIZMLARNING  
FUNKSIONAL-SEMANTIK XUSUSIYATLARI (BAHODIR  
XUDOYBERGANOV BADIIY TILI MISOLIDA)**

*Isroilova Mohigul Akramovna,  
Samarqand davlat chet tillar instituti Payariq xorijiy  
tillar fakulteti o'qituvchisi,  
Rasulova Gulshoda Doniyor qizi,  
Samarqand davlat chet tillar instituti Payariq xorijiy  
tillar fakulteti II-bosqich talabasi.*

**ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada iste'dodli yozuvchi Bahodir Xudoyberganov asarlarining til xususiyatlari, yozuvchining o'z asarlarida frazeologizmlardan foydalanishdagi mahorati kabi bir qator masalalar atroflicha tahlil etilgan. Taniqli yozuvchi darajasiga ko'tarilayotgan Bahodir Xudoyberganov romanlarining til xususiyatlarini, yozuvchining asarlarida frazeologizmlardan, maqol va aforizmlardan foydalanish sohasidagi mahoratini ilmiy jihatdan tadqiq etish zarurligini ko'rsatadi. Bu esa mazkur maqolaning o'zbek filologiyasi, badiiy nutq uslubiyati, frazeologik uslubiyat uchun dolzarb ekanligidan dalolat beradi.*

***Kalit so'zlar:** til, nutq, frazeologizm, okkozional frazeologizmlar, fraziologizmlar sinonimiyasi.*

Mustaqillik yillarida o'zbek yozuvchilarining tili va uslubi haqida, shuningdek, konkret bir badiiy asarning tiliga doir qator monografiya va ilmiy maqolalar, nomzodlik dissertatsiyalari paydo bo'ldi. Bu hol tilshunoslikda adabiy va badiiy til hamda uslub masalalariga katta e'tibor berilayotganligi, tilning nazariy asoslari ishlab chiqilayotganligini ko'rsatadi. Har qanday badiiy asarning tili umumxalq tilining tarkibiy qismi hisoblanadi. Umumxalq tilidan ajralgan badiiy tilning bo'lishi ham mumkin emas. Badiiy so'z ustalari asar yozish jarayonida umumxalq tili boyligidan ma'lum so'zlarni, iboralar va maqollarni tanlab olib unga sayqal berib qo'llaydilar. Shu asosda ular adabiy tilning ravnaqiga, silliqlashuviga ma'lum darajada hissa qo'shadilar.

Ma'lumki, til badiiy adabiyotning birinchi elementi, material va asosiy qurolidir. Insonning ong-tuyg'ulariga ta'sir etib, uni hayajonga soladigan obraz va manzaralar so'z yordamida, so'zlardan tashkil topgan gapni aylanlirmoq, gapni ilib ketmoq, tarvuzi qo'ltig'idan tushmoq, almisoqdan qolgan singari frazeologizmlar, ya'ni iboralar yordamida tasvirlanadi. Lekin so'z va iboralarning o'zi badiiy asarda yakka holda obraz ham, manzara ham bo'la olmaydi. So'z va iboralar asarda tasvirlanadigan obrazlar bilan o'zaro bog'liq bo'lsa ham, lekin ular bir-birini qoplaydigan, bir-biriga teng keladigan

tushunchalar emas. So'z va iboralar til birligi, obraz esa san'at hodisasidir. Badiiy adabiyotda so'z va iboralar obraz, manzara yaratish uchun material, vosita, libos bo'lib xizmat qiladi. Talantli yozuvchining mahorati shunda namoyon bo'ladiki, u hayotda ma'lum harakat, manzara yoki holatni yorqin ifodalaydigan so'z va iboralar topadi va bu so'z hamda iboralarni asar g'oyasi, obraz ruhi va mantiqiga moslab qo'llashga intiladi. Bunday so'z va iboralarni o'qir ekanmiz, biz hayotdagi voqea-hodisalarni ko'rayotganday bo'lamiz. Boshqacha qilib aytganda, talantli yozuvchi qalamining sehri ostida so'zlar va frazeologizmlar hayotdagi narsa va hodisalarni, inson kechinmalarini bizning ongimizdagi rasmdagiday aniq gavdalantiradigan vositalarga aylanadi. Tom ma'nodagi so'z san'atining qudrati ham mana shu bilan belgilanadi. Biz talantli yozuvchi bevosita ishlatgan so'z va frazeologizmlarning o'zidan emas, balki o'sha so'zlar va frazeologizmlar yordamida ko'z o'ngimizda tiklangan inson obrazidan, uning xatti-harakatidan ta'sirlanamiz.

Bahodir Xudoyberganovning "Oy nurlari so'nmaydi" romani Xorazm qishloqlaridan biridagi sofdil, halol, fozil insonlarning fe'l-atvorlarini, o'zaro munosabatlarini tasvirlashdan boshlanadi. Yozuvchining avvalgi romanlarida ham bir oila, bir xonadon, bir sulola boshlig'ining yetuk, fozil inson sifatidagi hayot yoi tasvirlanadi. Xuddi shuningdek, "Oy nurlari so'nmaydi" romanida ham Safarniyoz otaning ikkinchi jahon urushi janglarida badanida o'q parchasi qolgani tufayli chekkan azoblari, shunga qaramay, farzandlarini yaxshi insonlar qilib voyaga yetkazgani tasvirlanadi.

Adabiy tilda "gap yo'q" ikki ma'noga ega bo'lgan polisemantik frazeologizmdir: "1) ajoyib, juda zo'r; 2) albatta, boshqacha bo'lishi mumkin emas" (O'TIL-5, 1, 481). Bu umumtil frazeologizmi ham romanda ikki marta ishlatilgan. Bahrom ikki do'st - Haydarjon va Komiljonning do'stligiga havasi kelib, shu frazeologizmni qo'llaydi: "- Haqiqiy do'stga gap yo'q! - Komiljonning o'rniga atrofdagilarga aroq quyib uzatgan Bahrom piyolani dast ko'tardi. -Kelinglar, jo'rachilik uchun ichamiz!.." (O.n.s., 13). Keyingi marta bu frazeologizm mafiyalar to'dasining rahbari Bos nutqi tarkibida qo'llanib, o'z kirdikorlaridan mamnunlik hissini ta'kidlash uchun xizmat qilgan: "- Generalga gap yo'q! - Bos kulib qo'ydi va uyali telefonni qo'lga oldi. - "Qora", pastdagi "Kamaz"ni ko'rayapsanmi?

Shunisi muhimki, yozuvchi ba'zan takrordan qochish maqsadida o'zaro bir-biriga ma'no jihatdan yaqin bo'lgan frazeologizmlardan foydalanadi. Masalan, "quyon bo'lmoq", "quyonni surmoq", "juftakni rostlamoq" frazeologizmlari so'zlashuv nutqiga xoslangan bo'lib, "juda tez qochib qolmoq, zudlik bilan ko'zdan g'oyib bo'lmoq" ma'nolarini bildiradi (O'TFL, 103; O'TIL-5, 5, 361). Romanda Karimjonning qaynog'asi Kenjaboyning Zulfiqorov xatti-harakatlaridan keyin shaharni tezda tark etishga majbur bo'lgani ana shu frazeologizmlar yordamida obrazli ifodalangan: "Singlisi bilan "dard"lashgan Kenjaboy kechquruning o'zidayoq juftakni rostladi..."

(O.n.s., 175); "- Tipirchilab qolgandir? Dollarni ko'rdimi? — Ha. Oqshomning o'zidayoq quyonni survordi" (O.n.s., 175)kabilar.

Ba'zan yozuvchi mavjud umumtil frazeologizmini kengaytirish usulidan foydalanib, okkazional frazeologizm hosil qiladi. Masalan, tilimizda "ishongan tog'i bo'lmoq" frazeologizmi "suyanchi, tayanchi bo'lmoq" ma'nolarini ifodalaydi (O'TIL-5, 2, 257). Yozuvchi xuddi shu frazeologizm tarkibini unga qofiyadosh birikmaga kengaytiradi, shu asosda "ishongan tog'im, ko'nglimdagi bog'im" okkazional frazeologizmi shakllanadi. Begoyim (Xadicha) ana shunday frazeologizm yordamida o'z xo'jayini Bosga tilyog'lamalik qiladi: "-Meni hafa qilyapsiz, Bos. Yaxshi emas! Yana men sizni ishongan tog'im, ko'nglimdagi bog'im, deb yuribman-a! - Begoyim ko'zlarini suzdi..." (O.n.s., 142).

Ma'lumki, til - bu material va vosita - «badiiy adabiyotning birinchi elementi» (M.Gorkiy) sifatida milliy madaniyatning asosiy shakllaridan biri sanaladi. Shu bilan bir qatorda, badiiy adabiyot milliy adabiy tilning shakllanishi va rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Masalaga ana shu nuqtai nazardan qaraganda, badiiy adabiyot tilini o'rganish davr tili umumiy qonunlarini bilish uchun keng imkoniyat yaratadi.

Badiiy adabiyot sohasidagi endigina qalam tebratayotgan boshlovchi yozuvchilar voqea va hodisalarni o'z "men"i orqali ham bayon qilishga, shu bilan o'z kechmmalarini o'quvchiga tez yuqtirishga intiladilar. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, B.Xudoyberganov romanlarida yozuvchi "men"i mutlaqo uchramaydi. Yozuvchi manzara va holatlarni, voqealarni ko'proq ta'sirchan dialoglar orqali tasvirlashga intiladi va shu usul bilan qahramonlar qalbidagi kechinmalarni, ularning hayotlarida ro'y bergan o'zgarishlarni ko'rsatishga ko'proq intiladi.

Umuman olganda, iste'doli yozuvchi Bahodir Xudoyberganov ijodi, jumladan, hozirgi vaqtda kitobxonlarning sevimli asarlariga aylanib qolgan "Oy nurlari so'nmaydi", "Ayol armoni", "Qo'ynimdagi qotil" romanlari poetikasi, tili va uslubi maxsus tadqiqotlar uchun boy material manbai bo'lib xizmat qilishi muqarrar.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdusaidov A. Frazeologizmlar - matbuot tilida ta'sirchan vosita. Qo'llanma. - Samarqand: SamDU nashri, 2001. - 48 b.
2. Mamatov A. Frazeologizmlar shakllanishining nazariy asosiari. - Toshkent: Navro'z, 1997.-28 b.
3. Rafiev A. Iboralar - nutqimiz ko'rki. - Toshkent: O'zbekiston, 1985. - 32 b.
4. Yo'doshev B., Qurbonov T. Badiiy asar tili va uslubi masalalari (uslubiy qo'llanma). - Samarqand: SamDU nashri, 2007. - 164 b.
5. Yo'ldoshev B., Bozorboev K. O'zbek tilining frazeologik lug'ati (so'zlik). - Samarqand: So'g'diyon, 1998. - 86 b.
6. Rahmatullaev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. - Toshkent: O'qituvchi, 1978.- 408 b.
7. Rahmatullaev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati, Toshkent: 1978.
8. Rahmatullaev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati, Toshkent: 1992.